INTERNATIONAL JOURNAL OF SCIENTIFIC RESEARCHERS
ISSN: 3030-332X Impact factor: 9,493 Volume 17, issue 1, Aprel 2026
https://wordlyknowledge.uz/index.php/IJSR worldly knowledge
Index: google scholar, research gate, research bib, zenodo, open aire.
https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as_sdt=0%2C5&q=wosjournals.com&btnG
https://www.researchgate.net/profile/Worldly-Knowledge
https://journalseeker.researchbib.com/view/issn/3030-332X

ISHSIZLIK MUAMMOSI VA KAMAYTIRISH YO'LLARI

Talaba **Beknazarova Gavhar**
Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti

Annotatsiya

Ushbu maqolada ishsizlik muammosining mohiyati, uning kelib chiqish sabablari hamda jamiyat va iqtisodiyotga ta'siri tahlil qilinadi. Shuningdek, ishsizlik darajasini kamaytirishning samarali yo'llari, jumladan, yangi ish o'rinlarini yaratish, kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish, kasb-hunar ta'limini takomillashtirish kabi masalalar yoritiladi. Maqolada davlat siyosati va zamonaviy iqtisodiy yondashuvlarning bu boradagi ahamiyati ham ko'rib chiqiladi.

Аннотация

В данной статье анализируется сущность проблемы безработицы, причины её возникновения, а также её влияние на общество и экономику. Кроме того, рассматриваются эффективные пути снижения уровня безработицы, в том числе создание новых рабочих мест, развитие малого бизнеса и предпринимательства, а также совершенствование профессионального образования. В статье также освещается роль государственной политики и современных экономических подходов в решении данной проблемы.

Abstract

This article analyzes the essence of the unemployment problem, its causes, and its impact on society and the economy. It also examines effective ways to reduce the unemployment rate, including job creation, the development of small business and entrepreneurship, and the improvement of vocational education. The article also highlights the importance of government policy and modern economic approaches in addressing this issue.

Ishsizlik muammosi bugungi globallashuv davrida ko'plab davlatlar uchun dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Jahon mamlakatlari ishsizlik tushunchasini BMT, Xalqaro Mehnat Tashkiloti (XMT), Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish jamiyati talablariga ko'ra ishlab chiqishadi. Xalqaro tashkilotlarning bergan ta`rifiga binoan «ishsiz shaxslar» deganda — ishga ega bo'lmagan, ishlashga tayyor va ish izlayotgan fuqarolar tushuniladi. O'zbekiston Respublikasining «Aholini ish bilan ta`minlash to'g'risida»gi Qonuniga binoan ishsiz shaxs deb, mehnatga qobiliyatli (o'n olti yoshdan boshlab to pensiya bilan ta`minlanish huquqini olgunga qadar), ishga va ish haqiga (mehnat daromadiga) ega bo'lmagan, ish qidiruvchi shaxs sifatida mahalliy mehnat organida ro'yxatga olingan, mehnat qilishga, kasbga tayyorlash va qayta tayyorlashdan o'tishga, malakasini oshirishga tayyor mehnatga qobiliyatli shaxslar e`tirof etiladi.

Yurtimizda tadbirkorlikka, o'z-o'zini band qilish sohalariga katta e'tibor qaratilayotgan bir davrda, ishsizlik hajmi ham kundan-kunga ortmoqda. Buni raqamlar nisbatida ham ko'rishimiz mumkin. 2024-yilda mehnat bozoriga 2mln 400ming aholi kirib kelgani, bu esa 2023-yildagi ko'rsatgichdan qariyb 2 barobarga oshgani aniqlandi. Agar biz bu muammolarga yechim topmasak, kelib chiqish sabablarini o'ranmasak bu raqamlar yildan –

yilga ortib boradi xolos 1. Bugungi kunda respublika bo'yicha 876 ming nafar ishga joylashishga muhtoj aholi mavjud (yil ichida 1 ming 24 mingnafar bo'lgan) 2

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022 yildagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" gi PF-60-sonli Farmonining VI. "Milliy manfaatlardan kelib chiqqan holda umumbashariy muammolarga yondashish" nomli bobning 85-maqsadida: Mamlakatda yangi ish o'rinlari yaratish, aholi daromadlarini oshirish va shu orqali 2026-yil yakuniga qadar kambag'allikni kamida 2 baravarga qisqartirish kabi faoliyatlarni amalga oshirish maqsad qilib olingan. Unda quyidagilarni amalga oshirish rejalashtirilgan:

▪Kambag'allikni qisqartirish davlat dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish.

▪Norasmiy ishlayotgan 2,5 million nafar fuqaroning bandligini legallashtirishga yordam berish orqali ularda ijtimoiy kafolat va imtiyozlardan to'liq foydalanish imkoniyatini yaratish.

▪Ayollar orasidagi ishsizlik darajasini 2 baravar kamaytirish, 700 mingdan ziyod ishsiz xotin-qizlarni davlat hisobidan kasb-hunarga o'qitish. Ish bilan band bo'lmagan xotin-qizlarni tadbirkorlikka jalb qilish va o'zini o'zi band qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish.

▪Davlat ijtimoiy yordami va xizmatlarini ko'rsatishda mahalliy darajada ("mahallabay" tamoyili asosida) ijtimoiy ishlarni olib borish mexanizmini yo'lga qo'yish.

▪Hududlar, shaharlar va tumanlar kesimida kambag'al toifadagi oilalar, ayollar va yoshlarni yagona elektron hisobga olish tizimini yaratish, kambag'allikning qayta tiklanish xavfini bartaraf etish. Hunarmandchilik faoliyatini rivojlantirish.

▪Ijtimoiy nafaqa tayinlash mezonlariga javob beradigan barcha ehtiyojmand aholining kamida 85 foizini ijtimoiy yordam dasturlari bilan qamrab olish. Ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalar va aholi qatlamlariga, shuningdek, vaqtinchalik og'ir sharoitga tushib qolgan fuqarolarga to'g'ridan-to'g'ri davlat ijtimoiy yordamini ko'rsatish.

Klassifikator	2020 y.	2021 y.	2022 y.	2023 y.	2024 y.	2024 yilda 2020 yilga nisbatan	
						+, -	%
O'zbekiston Respublikasi	66,0	67,0	67,2	67,9	68,3	2,3	1,03
Qoraqalpog'iston Respublikasi	62,0	61,1	61,6	62,9	64,3	2,3	1,03
Andijon viloyati	66,5	68,2	69,5	70,6	70,2	3,7	1,05
Buxoro viloyati	68,3	67,2	67,2	68,7	67,7	-0,6	0,99
Jizzax viloyati	66,2	67,5	66,2	66,3	66,0	-0,2	0,9
Qashqadaryo viloyati	60,9	62,2	61,9	61,9	65,0	4,1	1,06
Navoiy viloyati	66,8	68,3	67,7	69,8	70,5	3,7	1,05
Namangan viloyati	65,0	65,5	64,8	65,9	66,8	1,8	1,02
Samarqand viloyat	63,2	63,7	64,7	65,0	64,8	1,6	1,02
Surxondaryo viloyati	63,9	64,5	64,2	63,8	63,7	-0,2	0,99
Sirdaryo viloyati	64,8	64,5	64,0	63,8	65,3	0,5	1,00
Toshkent viloyati	68,2	72,4	71,0	72,2	72,3	4,1	1,06
Farg'ona viloyati	65,1	66,2	67,1	68,4	68,0	2,9	1,04
Xorazm viloyati	63,7	64,0	64,7	66,9	66,2	2,5	1,03
Toshkent shahri	81,7	81,3	82,5	82,3	82,3	0,6	1,00

1 https://stat.uz/uz/

2 https://kun.uz/news/2021/10/30/ozbekistonda-ishsizlik-sabablari-maosh-kammi-yoki-yaxshi-xodim?q=%2Fuz%2Fnews%2F2021%2F10%2F30%2Fozbekistonda-ishsizlik-sabablari-maosh-kammi-yoki-yaxshi-xodim

ISSN: 3030-332X Impact factor: 9,493 Volume 17, issue 1, Aprel 2026
https://wordlyknowledge.uz/index.php/IJSR worldly knowledge
Index: ***google scholar, research gate, research bib, zenodo, open aire.***
https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as_sdt=0%2C5&q=wosjournals.com&btnG
https://www.researchgate.net/profile/Worldly-Knowledge
https://journalseeker.researchbib.com/view/issn/3030-332X

1-rasm. O‘zbekistonda bandlik darajasi ko‘rsatkichlari (2020-2024 yy.)

Jumladan, 1-jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, Qashqadaryo, Toshkent, Andijon viloyatlarida bandlik darajasi ko‘paygan bo‘lsa, Buxoro, Jizzax, Surxondaryo viloyatlarida pasaygan.

Bandlik markazlari faoliyatini takomillashtirish : Bandlik va mehnat munosabatlari markazlari: - ishga joylashtirish, - kasbga o‘qitish, -qayta tayyorlash, - jamoat ishlariga jalb etish kabi vazifalarni bajaradi. Raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi: IT sohasidagi yangi ish o‘rinlari yoshlar bandligi muammosini kamaytirishda samarali omil bo‘lmoqda.

Qishloq hududlarida bandlikni oshirish: - agroklasterlar, - qishloq xo‘jaligi modernizatsiyasi, - hunarmandchilik va oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish.

Ishsizlik - bir qism iqtisodiy faol aholining o‘ziga loyiq ish topa olmasdan qolishi va mehnat zaxirasiga aylanishidir. Ishsizlik muammosining asosiy sabablari quyidagilardan iborat:

1) Iqtisodiy omillar:

a) Ishlab chiqarish salohiyatining yetarli tezlikda rivojlanmasligi. Sanoatni modernizatsiya qilish jarayoni davom etayotgan bo‘lsa-da, iqtisodiyotning ko‘plab tarmoqlarida texnologik orqada qolish mavjud.

b) Kichik biznes va tadbirkorlik uchun moliyalashtirish imkoniyatlarining cheklanganligi, ayniqsa uzoq hududlarda.

c) Mehnat unumdorligining pastligi: iqtisodiyotda yaratilayotgan qo‘shimcha qiymatning pastligi ishchi kuchiga bo‘lgan talabni kamaytiradi.

2) Ijtimoiy-psixologik omillar:

a) Ko‘plab yoshlar mehnat bozoriga moslashishda qiynaladi, ularda kasbiy yo‘nalish tanlash madaniyati yetarli shakllanmagan.

b) Ayollarning mehnat bozoriga kirishida an’anaviy qarashlar va ijtimoiy cheklovlar mavjud.

3) Tashqi migratsiya jarayonlarining ta’siri. So‘nggi yillarda ko‘plab fuqarolar Rossiya, Koreya Respublikasi, Qozog‘iston va boshqa mamlakatlarga mehnat qilgani borib kelmoqda. Migratsiya bir tomondan bosimni yumshatsa, ikkinchi tomondan ichki mehnat bozorining rivojlanishini sekinlashtiradi. O‘zbekistonda ishsizlik darajasi mamlakat bo‘yicha o‘rtacha 8-10% atrofida deb baholanadi (yillarga qarab o‘zgaradi). Biroq ayrim toifalarda bu ko‘rsatkich ancha yuqori: Yuqori xavf guruhlari:

✓ 16-30 yoshdagi yoshlar - ishsizlikning eng katta ulushi.
✓ Ayollar, ayniqsa qishloq joylarda.
✓ Mehnat migratsiyasidan qaytganlar.
✓ Malakasi past yoki kasbi yo‘q shaxslar.

2025 yil 1 yanvar holatiga ko‘ra O‘zbekistonda ishsizlar soni yildan-yilga kamayib borganligini ko‘rish mumkin (2-jadval).

Klassifikator	2020 y.	2021 y.	2022 y.	2023 y.	2024 y.	2024 yilda 2020 yilga nisbatan	
						+, -	%
O‘zbekiston Respublikasi	1561,0	1441,8	1332,7	1024,1	836,0	-725	0,53
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	82,6	78,9	71,9	56,3	46,4	-36,2	0,56
Andijon viloyati	150,6	138,8	130,5	100,7	76,9	-73,7	0,51
Buxoro viloyati	93,9	84,9	75,8	55,6	45,1	-48,8	0,48
Jizzax viloyati	65,8	61,9	56,3	43,5	34,6	-31,2	0,52
Qashqadaryo viloyati	146,9	137,0	124,2	96,5	80,9	-66	0,55
Navoiy viloyati	41,5	39,8	35,7	28,6	22,5	-19	0,54
Namangan viloyati	128,5	119,3	107,9	84,9	68,6	-59,9	0,53
Samarqand viloyat	174,6	158,4	152,5	106,8	86,4	-88,2	0,49
Surxondaryo viloyati	122,8	113,9	103,6	80,6	64,6	-58,2	0,52
Sirdaryo viloyati	41,2	38,0	34,5	26,8	21,9	-19,3	0,53
Toshkent viloyati	138,6	126,5	116,9	90,5	76,3	-62,3	0,55
Farg‘ona viloyati	177,1	165,5	153,9	118,8	100,5	-76,6	0,56
Xorazm viloyati	88,1	80,0	73,7	54,9	44,6	-43,5	0,50
Toshkent shahri	108,8	98,9	95,3	79,6	66,7	-42,1	0,61

2-rasm. O‘zbekistonda ishsizlar soni (2020-2024 yy.)

Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi tomonidan 2025-yilda “Bandlikni ta’minlash milliy strategiyasi” ishlab chiqildi. Ushbu strategiya doirasida 2025–2030-yillar oralig‘ida har yili kamida 500 ming yangi ish o‘rni yaratish, ayniqsa qishloq joylarda bandlikni oshirish, ayollar va nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun maxsus ish o‘rinlari tashkil etish rejalashtirilgan. Ishsizlikni kamaytirishning muhim yo‘llaridan biri — ta’lim tizimini mehnat bozoriga moslashtirishdir. Hozirgi kunda ko‘plab oliy ta’lim muassasalarida nazariy bilimlar ustunlik qilmoqda, amaliy ko‘nikmalar esa yetarli darajada shakllanmayapti. Bu esa bitiruvchilarning ish topish imkoniyatlarini cheklaydi. Shu sababli, dual ta’lim tizimini joriy etish, ya’ni o‘qish jarayonida amaliyot bilan birga olib borish, ishsizlikni kamaytirishda samarali vosita bo‘lishi mumkin. Yana bir muhim yo‘nalish — raqamli iqtisodiyot va masofaviy ish shakllarini rivojlantirishdir. Pandemiya davrida ko‘plab sohalarda masofaviy ishga o‘tildi va bu yangi imkoniyatlar yaratdi. O‘zbekiston hukumati tomonidan 2023-yilda “Raqamli bandlik platformasi” ishga tushirildi. Ushbu platforma orqali fuqarolar o‘z malakalariga mos ishlarni onlayn tarzda topish imkoniga ega bo‘ldilar. Bu innovatsion yondashuv ishsizlikni kamaytirishda zamonaviy texnologiyalarning o‘rnini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, ishsizlikning psixologik va ijtimoiy oqibatlari ham jiddiy e’tiborga loyiq. Ishsiz shaxslar orasida depressiya, ijtimoiy ajralish, o‘zini past baholash holatlari ko‘p uchraydi. Goldsmith, Veum va Darity (1996) tomonidan o‘tkazilgan tadqiqotda ishsizlikning psixologik salbiy ta’siri aniq ko‘rsatilgan — bu holat insonning ruhiy holatini, ijtimoiy munosabatlarini va hatto sog‘lig‘ini ham yomonlashtiradi. Shu sababli, ishsizlikni kamaytirish nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy salomatlikni ta’minlash vositasi sifatida ham qaralishi lozim. Ishsizlik muammosining yana bir jihati – mehnat migratsiyasi. Rasmiy ma’lumotlarga ko‘ra, hozirda 2 milliondan ortiq o‘zbekistonlik fuqarolar Rossiya, Qozog‘iston, Janubiy Koreya va boshqa davlatlarda vaqtinchalik mehnat faoliyati bilan shug‘ullanmoqda. Bu bir tomondan, mamlakatimiz uchun valyuta tushumlarini ta’minlasa, boshqa tomondan, ichki mehnat bozoridagi bosimni kamaytiradi. Ammo uzoq muddatli istiqbolda mehnat migratsiyasiga tayanib qolish to‘g‘ri strategiya emas. Shu boisdan ham mamlakat ichida yuqori malakali ish o‘rinlarini yaratish, yoshlarni zamonaviy kasblarga o‘qitish asosiy vazifa bo‘lib qolmoqda. Xalqaro tajribaga murojaat qilsak, Germaniya, Yaponiya yoki Janubiy Koreya kabi

mamlakatlarda ishsizlikning nisbatan past darajada saqlanishi samarali kasb-hunar ta'limi, kuchli ishlab chiqarish sohasi va innovatsion iqtisodiyot bilan bog'liqdir. Masalan, Germaniyada "dual ta'lim tizimi" mavjud bo'lib, bunda o'quvchilar bir vaqtning o'zida ham nazariy bilim, ham amaliy ko'nikma oladilar. Natijada ular bitirgan zahoti mehnat bozorida talabgor kadrga aylanadilar. O'zbekistonda ham so'nggi yillarda professional ta'limni rivojlantirish va o'quv dasturlarini mehnat bozorining ehtiyojlariga moslashtirish borasida chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Yana bir muhim yo'nalish – qishloq joylarda bandlikni ta'minlash. Aholining katta qismi qishloqlarda yashayotganini hisobga olsak, bu hududlarda infratuzilmani rivojlantirish, fermer xo'jaliklarini qo'llab-quvvatlash va qishloq xo'jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlash orqali qo'shimcha ish o'rinlari yaratish mumkin. Masalan, O'zbekiston hukumati tomonidan "Har bir tuman – bir mahsulot" tamoyili asosida mahalliy resurslarga tayanib ishlab chiqarishni rivojlantirish choralari ko'rilmoqda

Xulosa qilib aytganda , ishsizlik va u bilan bog'liq muammolar mehnat bozoridagi ijtimoiy-mehnat munosabatlarining asosiy mazmunini tashkil qiladi. Ishsizlik muammosini o'rganishdan asosiy maqsad aholining ish bilan bandligini yaxshilash orqali mamlakat ishlab chiqarishini kengaytirish va aholi turmush darajasini yanada yaxshilashga aloqador tadbirlar ishlab chiqishdan iborat. Jamiyatdagi ishsizlik darajasini pasaytirish uchun qo'shimcha ishchi o'rinlarini yaratish, ularni ishga tushirish aholining tabiiy o'sishidan orqada qolmasligi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Maxmudov N.,Hakimov N.Makroiqtisodiy taxlil.o'quv qo'llanma-T.:TDIU,2019.-181 bet.
2. Edward Shapiro.Makroekanomic analusis. Fiffh odition.oxford.Copuright: 2015
3. MaxmudovN.M.,AsqarovaM.T.,UmarovI.Yu.Makroiq tisodiytaxlilva prognozlash .Darslik .T :"Fan va texnologiyalar",2014-338 b.
4. Xodiev B.Yu., Shodiev T.Sh., Berkinov B.B. Ekonometrika.O'quv qo'llanma T . :Iqtisodiyot,2018,178 b.
5. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi-T.; O'zbekiston,2023.-76 b.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi №PF-4947 sonli Farmoni.//Xalq so'zi.2023 yil 8 fevral.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustivor yo'nalishlari bo'yicha Xarakatlar strategiyasini kelgusida amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2022 yil 15 avgustdagi №3-5024 sonli Qarori.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoevning Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatiga Murojatnomasi,22.12.2022,uza.uz.
9. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy taxlil,qatiy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik-g'ar bir raxbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollariga bag'ishlangan majlisidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi.// Xalq so'zi gazetasi.2017 yil16 yanvar, №11.
10. N.Maxmudov,H.Hakimov."Makroiqtisodiy taxlil" fanidan O'quv-uslubiy majmua.-Toshkent;Iqtisodiyot.-2018 y.- 308 b.
11. T.Z.Teshaboev,Z.M.Otaqo'zieva.Makroiqtisodiyot.Ma 'ruzalar matni.T,:TATU,2015,480 b.
12. T.U.Bobokulov,N.G.Karimov,U.A.Abdullaev.Xalqaro valyuta-kredit munosabatlari.Ma'ruzalar matni.T:TMI,2015,244 b.
13. R.T.Shomurodov.Monetar siyosat.Ma'ruzalar matni.T.TMI,2015.151 b.